

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

USMANOV ASQAR ABDULLAYEVICH

**XALQARO TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA
O'QUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasining avtorefarati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по педагогическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Usmanov Asqar Abdullayevich

Xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish

Усманов Аскар Абдуллаевич

Совершенствование методики подготовки учащихся к профессиональной деятельности на основе интеграции международного опыта

Usmanov Asqar Abdullayevich

Improving the methodology of preparing students for professional activity based on the integration of international experience

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works

**KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

KASBIY TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI

USMANOV ASQAR ABDULLAYEVICH

**XALQARO TAJRIBALARNI INTEGRATSIYALASH ASOSIDA
O'QUVCHILARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASH
METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.05 – Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/Ped 11654-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Kasbiy ta’limni rivojlantirish institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.ipitvet.uz) hamda “ZiyoNET” Axborot-ta’lim portali (www.ziynet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Alijonov O‘tkir Maxamadaliyevich

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Ismoilova Zuhra Karabayevna

pedagogika fanlari doktori, professor

Nuridinov Baxodir Sabirovich

pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Kasbiy ta’limni rivojlantirish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/2025.27.12.Ped.01.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “___” _____ soat ___ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 96-uy. Tel.: (+998 71) 246-92-17, faks: (+998 71) 246-90-37 e-mail: pedagoginnovatsiyalar@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Kasbiy ta’limni rivojlantirish institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Talabalar ko‘chasi, 96-uy. Tel.: +998 71 246-92-17; faks: + 998 71 246-97-37).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil “___” _____ dagi _____-raqamli reestr bayyonnomasi).

R.X.Djurayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, p.f.d., akademik

S.Yu.Ashurova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, p.f.d. (DSc), professor

X.Sh.Kadirov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, p.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiya)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda malakali kadrlarni tayyorlash jarayonlari zamonaviy texnika va texnologik tendentsiyalar, zamonaviy o'quv loyihalari, kasbiy ta'lim va ishlab chiqarishning o'zaro yaqin hamkorligiga qaratilib, mamlakatlarning milliy malaka talablarini halqaro analoglarga moslashtirish asosida mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga alohida ahamiyat berilmoqda. Jumladan, Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT), YuNESKOning texnikaviy kasb-hunar ta'limi bo'yicha ixtisoslashtirilgan markazi (YuNEVOK) kabi tashkilotlar faoliyatida kasbiy ta'limi mazmunini modernizatsiyalash hamda uni innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalash bo'yicha yuqori natijalar kuzatiladi.

Jahonda kasbiy ta'lim jarayonini xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida loyihalash, amalga oshirish va rivojlantirishning ilmiy asoslangan tizimini yaratish dolzarbligicha qolmoqda. Xususan, kasbiy ta'limni rivojlantirish va bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga oid tadqiqotlar olib borilmoqda. Xalqaro ilg'or tajribalarga asosan, AQSH, Angliya, Germaniya, Xitoy, Rossiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ilmiy-tadqiqot markazlarida kasbiy ta'limni rivojlantirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish, kasbiy, kommunikativ kompetentsiyalarini rivojlantirish borasida salmoqli amaliy natijalarga erishilgan. Shunga ko'ra, raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlashda innovatsion yondashuvlarni amaliyotda qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda kasbiy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, uni xalqaro standartlarga moslashtirish, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar asosida raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158-son "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy etish asosiy ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Mazkur hujjatda kasbiy ta'lim tashkilotlarining akademik mustaqilligini ta'minlash, ularni raqamlashtirish, o'quv-uslubiy ta'minotini kuchaytirish, o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini aniqlovchi zamonaviy baholash tizimini joriy etish kabi muhim vazifalar ilgari surilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, kasbiy ta'lim tizimida innovatsion yondashuv asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, hozirgi globallashtirish sharoitida mehnat bozori talablari tezkor o'zgarib bormoqda, bunda esa nafaqat kasbiy bilim, balki kommunikativ, kreativ va axborot-kommunikatsion ko'nikmalarga ega bo'lgan universal mutaxassislar tayyorlash zarurati ortmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktyabrdagi PF-158-son "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish

va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston 2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812 -son "Kasbiy ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora - tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2020-yil 27-fevraldagi PQ-4623-son "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 31-dekabrda PQ-4939-son "Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, 2023-yil 7-dekabrda 648-son "Kasbiy ta'limda kredit-modul tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 7-avgustda 466-son "O'zbekiston Respublikasida Uzluksiz boshlang'ich, o'rta va o'rta maxsus kasbiy ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi fan hamda texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat, demokratik davlatni ijtimoiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda huquqiy, iqtisodiy, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Respublikamizda kasbiy ta'limi tizimini takomillashtirishga R.H.Jo'rayev, Sh.E.Qurbonov, Q.T.Olimov, N.A.Muslimov, A.R.Xodjabayev, M.M.Xolmuhammedov, Sh.S.Sharipov, S.Yu.Ashurova, N.Z.Abdunazarova, O.A.Abdquddusov, N.Alimov, G.M.Anorqulova, L.V.Golish, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, P.Z.Ishanov, K.J.Mirsaidov, N.N.Musayeva, B.Nuridinov, X.F.Rashidov, D.Razzoqov, N.I.Taylakov, O'.Q.Tolipov, O.To'raqulov, D.M.Fayzullayeva, R.Q.Choriyev, A.A.Shoyuzsupova, M.B.O'rozova, J.A.Hamidov va boshqalar o'z hissalarini qo'shmoqdalar.

Kasb ta'limini rivojlanish jarayoni va tendentsiyalari, bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammolari R.X.Djuraev, U.I.Inoyatov, Z.K.Ismailova, P.T.Magzumov, N.A.Muslimov, U.N.Nishonaliev, Q.T.Olimov, X.F.Rashidov, O'.Q.Tolipov, O.X.To'raqulov, A.R.Xodjabaev, SH.S.Sharipov, M.B.Urazova, J.A.Hamidov va boshqalarning ishlarida atroflicha yoritilgan.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, kasb-hunar kollejlarda maxsus fanlarni o'qitish va ishlab chiqarish ta'limini takomillashtirish muammolari bo'yicha S.Yu.Ashurova, O.A.Abdquddusov, G.M.Anorqulova, Q.M.Abdullaeva, K.D.Mirsaidov, I.A.Obabaev, O'.D.Xidirov, A.A.Xasanov, SH.Qosimov va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Kasb-hunar ta'limida kasbiy kompetentlikni shakllantirish, rivojlantirish va diagnostika qilish masalalari respublikamiz olimlari Q.M.Abdullaeva, N.A.Muslimov, SH.S.Sharipov, M.B.Urazova, O.A.Quysinov va boshqalar, xorijiy

mamlakatlarda V.I.Baydenko, A.A.Verbitskiy, N.A.Grishina, E.F.Zeer, I.A.Zimnyaya, N.V.Kuzmina, A.I.Kuleshova, A.K.Markova, N.V.Skachkova, A.V.Xutorskiy, R.Boyasis, K.Kameron, R.Kuinn, R.Marr, Dj.Raven, S.Uiddet, S.Xolliford tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot ishi muammosiga oid ilmiy izlanishlar va adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish samaradorligini oshirish, xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligi tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilayotgan ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Davlat ilmiy-texnika dasturlarining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" yo'nalishi bo'yicha "ITD-1 Jamiyatning ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlanishi, ma'naviy qadriyatlar, milliy g'oya, madaniy meros, o'zbek xalqi va davlatchilik tarixini hamda ta'limning uzviyligi va uzluksizligini, barkamol avlod tarbiyasini tadqiq etish" mavzusi doirasida bajarildi.

Tadqiqot maqsadi xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish iboratdir.

Tadqiqot vazifalari:

kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning mazmunini va samarali pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash;

xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlashning innovatsion modelini takomillashtirish;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tayyorlash metodikasini takomillashtirish;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentsiyasining shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: kasbiy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayoni.

Tadqiqot predmeti: kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash mazmuni, shakli, metodi va vositalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusiga oid psixologik-pedagogik, o'quv-metodik manbalar tahlili; DTS, malaka talablari, o'quv rejalari va dasturlarini o'rganish va tahlil qilish; modellashtirish (loyihalash); pedagogik-ijtimoiy (kuzatish, suhbat, so'rovnomalar, test); pedagogik tajriba-sinov ishlarini o'tkazish va natijalarga matematik va statistik qayta ishlash metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuni va samarali

pedagogik shart-sharoitlari axborot, didaktik, motivatsion va nazorat funksiyalarini aniqlash asosida takomillashtirilgan;

xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion modeli maqsadli, tarkibiy, protsessual va reflektiv komponentlar mazmunini kasbiy tayyorlov jarayonining real ish muhitiga yo'naltirish, hamkorlik va integratsiyalashgan o'qitish tamoyillarini kuchaytirish asosida takomillashtirilgan;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi o'qitish va amaliy mashg'ulotlarni integratsiyalash, portfel va ko'p manbali baholash, ustoz-instruktorlar ishtirokini kuchaytirish va real ish topshiriqlari asosida kompetensiyani dalillash tamoyillarini joriy etish asosida takomillashtirilgan;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetensiyasining shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari amaliy va nazariy ko'nikmalarni aniqlash, portfel va real ish vaziyatlarida dalil asosida baholash mexanizmlari orqali ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

kasbiy ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini tashkil etishga doir metodik ko'rsatmalar ishlab chiqilgan, ular asosida o'quv rejalari va ishlab chiqarish topshiriqlari bir-biriga moslashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan;

kasbiy ta'lim tashkilotlari va ishlab chiqarish korxonalari uchun "Ausbildung" modeli asosida o'quv-amaliy integratsiyani ta'minlovchi uslubiy qo'llanma tayyorlangan hamda unda o'quv mashg'ulotlarini mehnat jarayonlari bilan bog'lash, ustoz-murabbiy ishtirokini kengaytirish, baholashni portfel va autentik topshiriqlar orqali amalga oshirish usullari yoritilgan;

kasbiy ta'lim tizimida ustoz-instruktorlar faoliyatini samarali yo'lga qo'yish maqsadida менторлик tizimini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan, bunda ustozlarning pedagogik ko'nikmalarini oshirish, o'quvchilarni real ish jarayonida qo'llab-quvvatlash va amaliy kuzatuv varaqalari asosida baholash mexanizmlari taklif etilgan;

kasbiy ta'lim tashkilotlarida o'quvchilar tayyorgarlik darajasini baholash uchun ko'p manbali tizim yaratilib, unda ish joyi kuzatuv, sifat nazorati hujjatlari, darsdagi nazorat ishlari, loyiha taqdimotlari va portfel dalillari bir butun holda qo'llangan va ushbu baholash usuli tajriba-sinov ishlarida o'zining samaradorligini ko'rsatgan;

tadqiqot natijalari asosida kasbiy ta'lim tizimini takomillashtirish uchun amaliy takliflar ishlab chiqilgan, jumladan o'quv rejasini mehnat bozori talablariga moslashtirish, inter-korxonalar o'quv markazlari tashkil etish, raqamli texnologiyalar va kompetensiyalarni har bir modul mazmuniga integratsiya qilish, shuningdek bitiruvchilarning bandligi va malaka samaradorligini monitoring qilish tizimini yaratish yuzasidan metodik tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar va nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan

olingani, keltirilgan tahlillar va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistika metodlari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati kasbiy ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvni joriy etish uchun zarur pedagogik shart-sharoitlar aniqlangani, dual ta'lim modeli (Ausbildung)ni milliy sharoitda qo'llashga mo'ljallangan tashkiliy-didaktik asoslar ishlab chiqilgani, o'quv natijalari, mehnat vazifalari va baholash vositalarini uyg'unlashtiruvchi didaktik model takomillashtirilgani, kasbiy kompetensiyalarning tarkibiy tuzilmasi hamda ularni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari tizimlashtirilgani bilan izohlanadi. Shuningdek, o'quv vaziyatlariga tayanadigan ko'p manbali baholash (ish joyi kuzatuv, ish mahsuloti, portfel va suhbat) ilmiy asoslandi; sifatni ta'minlashning doimiy yaxshilash sikli, ichki-tashqi monitoring va mentor tayyorlash mexanizmlari bayon qilindi; raqamli kompetensiyalarni o'quv natijalariga integratsiya qilish tamoyillari nazariy jihatdan asoslab berildi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqot asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari va ishlab chiqarish korxonalari uchun dual ta'limni joriy etishga xizmat qiladigan metodik ta'minot yaratilgani, o'quv rejalari bilan ishlab chiqarish topshiriqlarini moslashtirishga doir uslubiy qo'llanma va shakl-namunalar (kuzatuv varaqalari, baholash rubrikalari, o'quv-ish jurnallari, portfel strukturasi) ishlab chiqilgani bilan izohlanadi. Amaliy natijalar qatorida ustoz-instruktorlar uchun qisqa kurslar va hamkorlik mexanizmlari, inter-korxonalar amaliyot markazlaridan foydalanish bo'yicha yo'l-yo'riqlar, raqamli komponentlarni modul darajasida tatbiq etish bo'yicha tavsiyalar, bandlikni kuzatish (tracer) va ko'p manbali dalillarga tayanuvchi monitoring tizimi shakllantirilgani ko'rsatildi; tajriba-sinov ishlari orqali mazkur yechimlarning samaradorligi amaliyotda tasdiqlandi.

Tadqiqotning natijalarining joriy qilinishi. Xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida o'quvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar natijalari asosida:

kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmuni va samarali pedagogik shart-sharoitlariga oid taklif va tavsiyalar asosida kasbiy ta'lim jarayonini tashkil etishda innovatsion metodik ta'minot ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi 02/17-4/2-2323-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kasbiy ta'lim tashkilotda maxsus fanlarni o'qitish sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning innovatsion modeli va kasbiy ta'lim tashkilotlarida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodikasi bo'yicha takliflar asosida o'qitish jarayonida innovatsion ta'lim yondashuvlaridan foydalanish texnologiyasi ishlab chiqilgan va ta'lim jarayoniga joriy etilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-

yil 14-noyabrdagi 02/17-4/2-2323-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kasbiy ta'lim tashkilotda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash sifati oshishiga xizmat qilgan.

kasbiy ta'lim tashkilotlarida bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetensiyasining shakllanganlik darajasini baholash mezonlari va ko'rsatkichlariga oid takliflari asosida kasbiy ta'lim o'quvchilarini kasbiy tayyorgarlik darajasini baholashning metodik ta'minoti ishlab chiqilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 14-noyabrdagi 02/17-4/2-2323-sonli ma'lumotnomasi). Natijada kasbiy ta'lim tashkilotda o'qitish metodikasi samaradorligini oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 5 ta Respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi Respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiy kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, asosiy matn 154 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi va muammoning o'rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, shuningdek, obykti va predmeti aniqlangan, tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr ettirilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining **“Kasbiy ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida kasbiy ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni integratsiyalashning pedagogik mohiyati, uning mazmuni va kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi ahamiyati batafsil yoritilgan. Bobda xalqaro tajribalar asosidagi innovatsion yondashuvning asosiy xususiyatlari sifatida zamonaviy texnologiyalar, interaktiv metodlar va shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayoni orqali bilim, ko'nikma hamda kompetensiyalarning uyg'un shakllanishi ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek, bobda xorijiy ilg'or tajribalar – xususan, Germaniyaning Ausbildung tizimi, AQSH va Janubiy Koreya ta'lim amaliyotlari – kasbiy ta'limda dual ta'lim tamoyillari va innovatsion vositalarni ishlab chiqarish bilan integratsiyalash orqali samaradorlikni oshirishda muhim manba sifatida tahlil qilingan.

Bugungi globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida ta'lim tizimiga xalqaro tajribalar asosida innovatsion yondashuvlarni joriy etish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonlari ta'lim sohasida ham

raqamli transformatsiyani boshlab berdi – natijada axborot texnologiyalari bilan uzviy bog‘langan yangi ta’lim muhiti shakllanmoqda. Innovatsiyalarni ta’lim jarayonida qo‘llash zamonaviy ta’limning ajralmas xususiyatiga aylangan bo‘lib, innovatsion jarayon va usullarni anglash hamda ularga tayangan holda ta’limni rivojlantirish ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim shartidir. Dunyo tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, kasbiy ta’lim jarayonini innovatsion yondashuv va zamonaviy usullar asosida loyihalash va takomillashtirish hali ham dolzarbligicha qolmoqda. Mediaqiy va texnik yangiliklar, mehnat bozori ehtiyojlarining tez o‘zgarishi hamda to‘rtinchi sanoat inqilobi talablari kelajak mutaxassislarini tayyorlashda yangicha pedagogik yondashuvlarni qo‘llashni taqozo qilmoqda. Shu bois, xalqaro miqyosda innovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni ta’limda qo‘llab, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda.

Ta’limda xalqaro tajribalar asosidagi innovatsion yondashuvlar mazmunan yangi, tuzilma jihatdan tizimli, shaklan interfaol, texnologik jihatdan raqamli va o‘quvchi shaxsiga yo‘naltirilgan usullar, shakllar va vositalar majmuasidir. Ular o‘z ichiga pedagogik texnologiyalarning zamonaviy modellari, pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi ijodiy hamkorlikni, mustaqil faoliyatni rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni qamrab oladi. Ushbu yondashuvlar ta’lim oluvchining individual-tayyorgarlik darajasi, qobiliyati va ehtiyojlarini inobatga olgan holda, shaxs rivoji va kasbiy yetishuvini ta’minlashga xizmat qiladi.

Ausbildung tizimi — Germaniya va qator Yevropaning boshqa mamlakatlarida keng tarqalgan, ikkilamchi va o‘rta maxsus ta’limni mehnat bozori bilan integratsiyalangan holda amalga oshirishga qaratilgan dual (ikki tomonlama) ta’lim tizimidir. Bu tizimda o‘quvchi bir vaqtning o‘zida ta’lim tashkilotida nazariy bilimlarni oladi va ish joyida (ishlab chiqarish korxonalarida) amaliyot o‘taydi. Ushbu yondashuv nafaqat kadrlarni tayyorlashning samaradorligini oshiradi, balki ularni amaldagi ish muhitiga moslashtirish, kasbiy faoliyatga real tayyorlash imkonini beradi.

Ausbildung tizimining asosiy komponentlari:

a. Dual yondashuv:

Ausbildung tizimi nazariy va amaliyotiy ta’limning uyg‘unligiga asoslangan. Unda ta’lim tashkilotlari (Berufsschule) va ish beruvchi tashkilotlar (kompaniyalar, zavodlar) o‘rtasidagi hamkorlik alohida o‘rin tutadi. Ta’limning 30-40%i nazariy, 60-70%i esa amaliyotga qaratilgan bo‘ladi.

b. Kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish:

Ausbildung tizimida o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlari emas, balki:

- ishlab chiqarish jarayonidagi ko‘nikmalari,
- muomala madaniyati,
- mustaqil ishlash qobiliyati,
- ijtimoiy mas’uliyati
- yanada chuqur shakllantiriladi.

c. Mehnat bozori bilan uyg‘unlik:

Bu tizimda o‘quvchilarni tayyorlash — to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozordagi ehtiyojlar asosida amalga oshiriladi. Ta’lim mazmuni ish beruvchilar bilan birgalikda

shakllantiriladi. Bu, o‘z navbatida, bitiruvchilarning ish bilan bandlik darajasini yuqori darajada ta‘minlaydi.

1-jadval

Ausbildung tizimining o‘ziga xos jihatlari

Asosiy xususiyat	Tavsifi
Amaliyotga yo‘naltirilganlik	Ta‘lim dasturi ishlab chiqarish real ehtiyojlariga asoslanadi
Ish haqi bilan ta‘minlash	O‘quvchilar ishlab chiqarishda ishtirok etgani uchun ma‘lum miqdorda oylik oladi
Tashkiliy tizimning yuksak sathda rivojlanganligi	Davlat, ish beruvchi va ta‘lim tashkilotlari o‘rtasida kelishuv shartnomalari asosida hamkorlik olib boriladi
Kompaniya bilan shartnoma	Har bir o‘quvchi ish beruvchi bilan rasmiy shartnoma tuzadi va amaliyotni shu kompaniyada o‘taydi
Bitiruvdan keyingi kafolatli bandlik	Ko‘p hollarda kompaniyalar o‘sha o‘quvchini o‘zida doimiy ishga qabul qiladi

Germaniyada Ausbildung tizimi qonunchilik asosida davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Berufsbildungsgesetz (BBiG) — Kasbiy ta‘lim to‘g‘risidagi qonun orqali ta‘lim jarayoni qonun doirasida tartibga solinadi. Ushbu tizimda 300 ga yaqin kasb yo‘nalishlari bo‘yicha ta‘lim tashkil etilgan bo‘lib, shular ichida mexanika, elektrotexnika, IT-texnologiyalar, savdo va mehmonxona xizmati yo‘nalishlari alohida ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Ausbildung tizimining afzalliklari:

- Real ishlab chiqarish muhiti bilan integratsiya: o‘quvchilar tajriba orqali bilimni amalga tatbiq qiladi;
- Bandlikning yuqoriligi: bitiruvchilar ishsiz qolmasdan, kompaniyada yoki shunga o‘xshash sohada ish bilan ta‘minlanadi;
- Kasbiy identifikatsiyani shakllantirish: shaxs o‘zining kimligi, qobiliyati va kasbiy salohiyatini aniqlab oladi;
- Kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirish: faqat bilim emas, balki amaliy malakalarga ham asoslangan ta‘lim ta‘minlanadi;
- Bozor talabiga javob beruvchi mutaxassis tayyorlanadi.

Ta‘lim jarayonining innovatsion jihatlaridan yana biri – o‘quvchilarning mustaqil o‘qishi va mas‘uliyatli qaror qabul qilish ko‘nikmasini shakllantirishdir. Korxonada yosh kadr haqiqiy mahsulot yoki xizmat yaratish jarayoniga jalb etiladi, jamoada ishlashni o‘rganadi, mijozlar va buyurtmachilar bilan muloqot ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu jarayon davomida u qator xatolarga ham yo‘l qo‘yishi mumkin, ammo ustoz va hamkasblar ko‘magida xatolarini tuzatib boradi – natijada, himoyalangan real muhitda kishi kasbiy jihatdan voyaga yetadi. Kasbiy

ta'lim tashkilotidagi an'anaviy ustoz-shogird munosabatidan farqli o'laroq, korxonada o'quvchi ko'proq tengdosh kabi qabul qilinadi, unga ishonch va javobgarlik yuklanadi. Shu bois, dual tizim bitiruvchilari ish boshlaganda allaqachon 2-3 yillik mehnat stajiga ega bo'ladi, jamoaga tez moslashadi va ish intizomini yaxshi biladi.

Natijaviylik nuqtai nazaridan, dual tizimning samarasi bir necha mezonlarda o'lchanadi:

1) Bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanishi – yuqorida qayd etilganidek, Germaniya va Shveysariyada dual tizim bitiruvchilarining aksariyati darhol ishga kiradi (yoki hatto o'qish paytidanoq band bo'lib ulgurgan);

2) Kasbiy malakaning sifat darajasi – dual tizim bitiruvchilari ish o'rnidagi amaliy tajriba tufayli ish beruvchilar nazarida yuqori baholanadi, natijada korxonalar tayyor mutaxassis yollashga emas, o'zlari shogird tayyorlashga intiladi;

3) Iqtisodiy samaradorlik – makroiqtisodiy jihatdan, dual tizim tufayli davlatda bandlik oshadi, yoshlar orasidagi ishsizlik kamayadi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash xarajatlari tejaladi.

Malakali ishchi kuchi sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga uzluksiz oqib kelgani bois, bu davlatlarning iqtisodiyoti raqobatbardoshligi yuqori bo'lib kelmoqda. Misol uchun, Shveysariya va Germaniya dunyoning eng innovatsion iqtisodiyotlari sifatida e'tirof etiladi – bunda kasbiy ta'lim tizimining bevosita hissasi borligi tadqiqotlarda qayd etiladi.

Xulosa qilib aytganda, Germaniya, Avstriya va Shveysariya tajribasidagi dual Ausbildung tizimi bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda yuqori samaradorlikka ega innovatsion yondashuv ekani isbotlangan. Uning muvaffaqiyati davlat, biznes va ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi uzviy hamkorlik, nazariya va amaliyotning uyg'unligi, malaka standartlarining mehnat bozori talablariga mosligi hamda ta'lim natijalarining qat'iy nazorat qilinishi kabi omillarga asoslanadi. Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston kasbiy ta'lim tizimida dual yondashuvning ayrim elementlari paydo bo'la boshlagan bo'lsa-da, to'laqonli Ausbildung modelini joriy etish uchun hali ko'plab islohotlarni amalga oshirish zarur. Xususan, yosh mutaxassislarni korxonalarda o'qitish tizimini institutsionallashtirish, ish beruvchilarning moddiy va ma'naviy rag'batini oshirish, o'quv dasturlarini zamonaviylashtirish va ustoz kadrlarni hozirlash borasida xalqaro ilg'or tajribani chuqur o'rganish lozim.

Ausbildung tizimining innovatsion afzalliklari – bitiruvchilarning bandlik darajasini oshirishi, ularning real sektorga moslashuvchanligi, umrboqiy o'qish va kasbiy rivojlanish ko'nikmasini shakllantirishi – bularning barchasi O'zbekistonning yoshlarga oid siyosati va iqtisodiy taraqqiyot maqsadlariga hamohangdir. Shu bois, dual ta'limni joriy etish yo'lida germaniyacha modelni milliy sharoitlarni inobatga olgan holda adaptatsiya qilish ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'zini oqlaydi, deb xulosa qilish mumkin.

Dissertatsiya ishining **“Kasbiy ta'lim tizimida xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida innovatsion

yondashuvning metodik shart-sharoitlari va ta'lim jarayoniga joriy etish mexanizmlari yoritilgan. Bobda, avvalo, Ausbildung tizimini kasbiy ta'lim tashkilotlariga tatbiq etishning mazmuni va didaktik imkoniyatlari ko'rib chiqilib, nazariya va amaliyotning uzviy bog'liqligi, ishlab chiqarish muhiti bilan integratsiya jarayonlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Shuningdek, bobda Ausbildung tizimi asosida ishlab chiqilgan tashkiliy-didaktik model taqdim etilgan bo'lib, unda maqsadli, jarayon va natijaviy komponentlarning mazmuni batafsil asoslab berilgan. Mazkur model interaktiv metodlar, dual ta'lim elementlari va zamonaviy o'quv vositalaridan foydalanish orqali o'quvchilarda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy ko'nikma va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kasbiy ta'lim tashkilotlarida ausbildung (dualiy-apprentiship) tizimini joriy etish mazmuni, avvalo, "ikki o'quv maydoni" — korxonada (ishlab chiqarish) va kasbiy ta'lim tashkiloti (Berufsschule) o'rtasida o'rganish faoliyatini tizimli integratsiyalash orqali kompetensiyaga yo'naltirilgan natijani kafolatlashdan iborat bo'ladi. Dual model "ausbildung" atamasi bilan ifodalangan holda, ta'lim oluvchi bilan ish beruvchi o'rtasidagi mehnat-huquqiy munosabat (shartnoma, ish haqi, ish joyidagi o'qitish) hamda davlat tomonidan tartibga solingan o'quv jarayonini uzviy bog'laydi.

Kasbiy ta'lim tashkilotida ausbildungni joriy etish mazmuni — aniq huquqiy-institutsional ramka, ijtimoiy hamkorlikka tayangan tartibga solish, o'quv maydonlari kooperatsiyasi hamda LO–o'qitish–baholashning konstruktiv uyg'unligidan iborat. Didaktik imkoniyatlar esa ish jarayoniga yo'naltirilgan o'quv vaziyatlarini (Lernsituationen) loyihalash, inter-korxonada markazlari orqali kompetensiyaning to'liq konturini ta'minlash, raqamli va yashil kompetensiyalarni o'qitishning markaziga qo'yish, ko'pkanali baholash (portfolio, proyekt, imtihon)ni uyg'unlashtirish, EFQEA mezonlari asosida sifat kafolatini yo'lga qo'yishdir. Bunday model "o'qish–ishlash"ni bitta integratsiyalashgan ta'lim jarayoniga aylantiradi va dual tizimning ijtimoiy-iqtisodiy ustunliklarini (bandlikka tez o'tish, ish beruvchi bilan uyg'unlik, modernizatsiyaga moslashuv) didaktik jihatdan real natijaga ko'chiradi. Shu bilan ausbildung nafaqat kasbiy tayyorlovning shakli, balki kasbiy didaktikaning stabil platformasiga aylanadi — o'quvchi real vazifalarda o'rganadi, LOlar real mahsulotlar bilan isbotlanadi, baholash esa ish bozorida tan olinadigan malakaga ulanadi.

50730301-Bino inshootlar qurulishi mutaxassisligi kontekstida ausbildung (dual kasbiy tayyorlov) tizimini joriy etishning didaktik imkoniyatlari, avvalo, mazkur sohaning ishlab chiqarish jarayonlari yuqori xavfsizlik, aniq me'yorlarga rioya qilish, texnologik ketma-ketlikka sodiqlik va sifat-kafolat mexanizmlariga tayangan integrativ xususiyatidan kelib chiqadi; shu bois ta'lim mazmunini "nazariya–ish joyi–refleksiya" uchligi asosida qayta konstruksiya qilish, kompetensiyaviy yondashuvni modulli o'qitish bilan uyg'unlashtirish, o'quv baholashni esa real ishlab chiqarish natijalari bilan bog'lash didaktik dizaynning bosh strategiyasi bo'lishi lozim. Bino va inshootlar qurilishi amaliyotida "vaqt–sifat–xavfsizlik–xarajat" to'rtlik mezoni bo'yicha qarorlar qabul qilinadi; demak, o'quvchi nafaqat konstruktiv va texnologik bilimni, balki mehnat muhofazasi, sifat

nazorati, logistika, xarajatlar smetasi, geodezik belgilash, ish frontini tashkil etish, jamoada muvofiqlashgan ishlash kabi ko‘p komponentli kompetensiyalarni ham egallashi zarur. Ausbildung didaktikasi aynan shu ko‘p komponentlilikni yaxlit o‘quv tajribasiga aylantirish imkonini beradi: darsxona va laboratoriyalarda shakllangan nazariy-tahliliy bilimlar ish joyida kuzatuv, “qo‘l bilan bajarish”, texnologik karta bilan ishlash, sifat protokollarini to‘ldirish, xavf tahlili va yo‘l-yo‘riqnoma (method statement)lar tuzish orqali amaliy ko‘nikma va malakaga aylanadi; har hafta yoki har modul yakunida esa reflektiv tahlil sessiyalari orqali o‘quvchi o‘z faoliyati natijalari, xatolar, yechimlar, o‘rganilgan darslar (lessons learned)ni konseptual darajaga ko‘taradi.

Ausbildung tizimi — dual ta’limning zamonaviy, mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashgan shakli — aynan shunday model yaratish uchun eng qulay metodologik maydonni taqdim etadi. Dual yondashuvda o‘quvchi (talaba) bir vaqtning o‘zida kasbiy ta’lim tashkilotida nazariy-amaliy bilimlarni egallaydi va ish joyida (korxonada) real ishlab chiqarish jarayonida kompetensiyalarini rivojlantiradi. Demak, ta’limning natijasi — kompetensiya — darsxona va ustaxona hamda ish o‘rnidagi faoliyatda parallel shakllanadi. Bu holat didaktik dizaynni mos ravishda qayta qurishni talab qiladi: auditoriyadagi faoliyat “amaliyotga tayyorlovchi” (pre-practice) va “amaliyotni refleksiyalovchi” (post-practice) funksiyalarni bajarishi, korxonadagi faoliyat esa “kompetensiyani real vaziyatda shakllantiruvchi” (in-practice) va “ish unumdorligini ko‘rsatuvchi” (performance) funksiyalarni bajarishi lozim. Shunday qilib, Ausbildung asosida quriladigan tashkiliy-didaktik model nazariya va amaliyot o‘rtasidagi klassik uzilishni bartaraf etib, o‘qitishning “qila olishga” yo‘naltirilganligini kafolatlaydi.

Modelning maqsadi — bo‘lajak mutaxassislarni (kasbiy ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha) mehnat bozori talablariga mos integral kompetensiyalar bilan ta’minlash, bunda kompetensiyalarning shakllanishi dual muhitda (ta’lim tashkiloti + ish joyi) didaktik jihatdan boshqariladi va tashkilotchilik jihatdan kafolatlanadi. Shu maqsadga erishish uchun model quyidagi vazifalarni hal etadi: 1) kasbiy LOlarni kasbiy standartlar bilan uyg‘unlashtirish va modul-kompetensiya matricsini ishlab chiqish; 2) o‘qitishning tashkiliy konfiguratsiyasini (haftalik/oylik dual grafiklar, rotatsiya, bloklash, modul ssenariylari) loyihalash; 3) didaktik metod-vositalarni dual kontekstga moslashtirish (ish joyidagi o‘qitish metodlari: ko‘rsatish-bajarish, shadowing, coaching, task-based learning; auditoriya metodlari: muammoli o‘qitish, keys-stadi, loyiha, simulyatsiya, refleksiya seanslari); 4) mentor-instruktor institutini soddalashtirilgan standartlar asosida yo‘lga qo‘yish (majburiy brifing, xavfsizlik, CQI — doimiy takomillashtirish); 5) baholash tizimini LO-ga mos formatlarda loyihalash; 6) sifatni ta’minlash va monitoring mexanizmlarini o‘rnatish (ko‘rsatkichlar, dalillar, qayta aloqa sikllari); 7) raqamli infratuzilma (LMS, e-portfolio, proyekt treker, hamkorlik paneli)ni ishga tushirish; 8) hamkorlikning huquqiy-iqtisodiy asoslarini (uch tomonlama shartnoma, jadval, sug‘urta, mehnat muhofazasi, moddiy rag‘bat) tizimlashtirish.


“Ausbildung tizimi asosida bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlashning tashkiliy-didaktik modeli” doirasida olib borilgan tahlil va modellashtirish ishlari shuni

ko'rsatadiki, dual yondashuvni didaktik jihatdan to'g'ri konstruksiyalash va tashkilotlararo boshqaruvni tizimlashtirish orqali kasbiy ta'limning natijaviyligi sezilarli darajada oshadi. Mazkur modelning konseptual yadrosi kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim falsafasiga, LO (Learning Outcomes – o'quv natijalari)ni markazga qo'ygan dizayn mantiqiga, nazariya-amaliyot integratsiyasini kafolatlaydigan tashkiliy mexanizmlarga hamda mehnat bozori bilan "jonli aloqa"ni ta'minlaydigan ijtimoiy hamkorlik infratuzilmasiga tayangan holda shakllantirildi.

Ta'lim tashkiloti – ish beruvchi – o'quvchi (shogird) – davlat regulyatori – kasbiy tarmoqlar bog'lanishidan iborat ko'p tomonlama tizimda har bir subyektning vakolati, javobgarligi, KPilari va monitoring ko'rsatkichlari aniqlashtirilganida, ta'lim jarayonining ichki va tashqi sikllari (Plan-Do-Check-Act) uzluksiz ishlay boshlaydi. Didaktik nuqtai nazardan, model o'quv fanlari mazmunini ishchi malaka birliklari bilan "silliq tutashtirish"ni, modul-kompetensiya-LO mosligini bir ma'noli ifodalaydigan LO matriksini, ishlab chiqarishdagi amaliy topshiriqlarni (Work-Based Tasks) o'quv-uslubiy ta'minotga aylantiradigan integratsion mexanizmlarni hamda baholashni haqiqiy ish faoliyatiga bog'laydigan autentik baholash vositalarini (rubrikatorlar, chek-listlar, ish joyi kuzatuv varaqalari, loyiha himoyasi, portfel) yagona didaktik konstruksiyaga jamlaydi.

O'quvchi tajribasi nuqtai nazardan, model "o'rganishning mazmunli yo'li"ni yaratadi. O'quvchi real ish muhitida ijtimoiylashadi, kasbiy etika, vaqtni boshqarish, xavfsizlikka mas'uliyat, jamoaviy hamkorlik kabi yumshoq ko'nikmalarni "tabiiy kasbiy ta'lim tashkiloti"da egallaydi. Refleksiv topshiriqlar orqali o'z o'sishini ko'radi, LO panelida rivojlanishini tahlil qiladi, portfeli esa bir vaqtning o'zida o'qishning daliliy bazasi va mehnat bozoriga chiqishda "ko'rgazmali karta" vazifasini o'taydi.

Natijada, "Ausbildung tizimi asosida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashning tashkiliy-didaktik modeli" quyidagi strategik natijalarni kafolatlashga qodirligi isbotlandi: LO-ga yo'naltirilgan dizayn va autentik baholash orqali o'quv natijalarining amaliy qiymati keskin oshadi; nazariya-amaliyot integratsiyasi shaxsning kasbiy identifikatsiyasini va ishga tayyorlikni tezlashtiradi; ijtimoiy hamkorlik infratuzilmasi mehnat bozori talablarini o'quv rejasiga operativ tarjima qiladi; raqamli boshqaruv shaffoflik va tejamkorlikni ta'minlaydi; sifat kafolati tizimi esa doimiy yaxshilanishni (continuous improvement) madaniyatga aylantiradi. Eng asosiysi, model bozor ehtiyojiga mos real vazifalarni bajara oladigan, xavfsizlik, sifat va unumdorlik me'yorlarini tushunadigan, muammoli vaziyatlarda mustaqil yechim topa oladigan hamda jamoa ichida muloqot qila oladigan mutaxassisni tayyorlashga xizmat qiladi. Bu – kompetensiyaviy ta'limning amaliy mezoni va dual tizimning eng muhim didaktik g'alabasidir



1-rasm. Xalqaro tajribalarni integratsiyalash asosida bo'lajak mutaxassislarni kasbiy tavorlashning tashkiliy-didaktik modeli

50730301–Bino inshootlar qurilishi yo‘nalishida Ausbildung modelini samarali tatbiq etishning bosh tamoyili “ishlab chiqarish vazifasi – o‘quv vazifasi – kasbiy vakolat (kompetensiya) – LO (Learning Outcomes) – baholash” zanjirini didaktik jihatdan muvofiqlashtirishdir. Bu zanjirda LOlar aniq, o‘lchanadigan, mehnat vazifalari bilan bevosita bog‘langan bo‘lishi shart: masalan, LO-1 “o‘quvchi betonga qo‘yiladigan normativ talablarga muvofiq aralashma tarkibini hisoblaydi va laboratoriyada sinovdan o‘tkazadi”, LO-2 “BIM muhitida karkasli binoning konstruktiv yechimlarini modellashtiradi, kolliziyalarni aniqlaydi va muvofiqlashtiradi”, LO-3 “monolit temir-beton ishlari uchun qoliplash–armaturalash–betonlash texnologik ketma-ketligini ishlab chiqadi va ish joyi xavf-xatarlarini JSA/JHA orqali baholaydi”, LO-4 “qurilish maydonchasi logistikasini, kranlar ishini, zaxira maydonlarini va vaqtinchalik yo‘laklarni Tashkiliy-texnik chora-tadbirlar rejasida rejalashtiradi”, LO-5 “geodezik asbob-uskunalarda (nivellir, teodolit, total stansiya) qat’iy yo‘riqnoma asosida o‘lchov bajaradi va natijani dalolatnoma bilan rasmiylashtiradi”, LO-6 “smeta va tender hujjatlarini (ishlar hajmi ro‘yxati, narxlash) shakllantiradi va xarajatlar jadvalini CPM/PERT rejalashtirish bilan integratsiyalashadi”, LO-7 “QA/QC tizimi doirasida ITP (Inspection & Test Plan)ni tuzadi va nonkonformatsiyalarni 8D mantiqda bartaraf etadi”, LO-8 “‘yashil qurilish’ mezonlari bo‘yicha LCAGa kirish darajasida baholash o‘tkazadi”, LO-9 “jamoada ichida hamkorlik va muhandislik kommunikatsiyasini olib boradi, ishchi brigada bilan texnik brifing o‘tkazadi”, LO-10 “ish joyida texnika xavfsizligi talablari (balandlikda ishlash, elektr, kran) bo‘yicha xatti-harakat algoritmini qo‘llaydi”.


Ushbu LOlar mazmuni o‘quv dasturining modullari, ishlab chiqarishdagi real vazifalar va yakuniy kompetensiya profilini birlashtiruvchi “kompetensiya yo‘l xaritasi”da tabaqalashtiriladi; bunda darajalar (past–o‘rta–yuqori) bo‘yicha descriptorlar (masalan, “yo‘riqnoma asosida bajaradi/yo‘riqnoma va jadvallarni mustaqil tuzadi/optimallashtirish va raqamli tahlil kiritadi”) to‘liq ko‘rsatiladi. Didaktik nuqtai nazardan, ushbu yo‘l xarita “qiyinchilik gradienti”ga amal qiladi: dastlab laboratoriya va virtual muhitda simulyasiya, so‘ng ustaxona muhitida murakkablashtirilgan amaliy topshiriqlar, oxirida esa ishlab chiqarishdagi real uchastka yechimlari va capstone-CDIO loyihasi.

Capstone-CDIO loyihasi metodikaning mantiqiy yakun bosqichidir: buyurtmachining haqiqiy brifi (masalan, 18×36 m oraliqli, 2 qavatli ishlab chiqarish inshooti), funksiya va cheklovlar, vaqt va byudjet chegaralari, joyning geotexnik xususiyatlari beriladi; o‘quvchilar kichik “pudratchi jamoalari”ga bo‘linadi, BIM asosida konsepsiya yaratadi (Conceive), konstruktiv yechimni loyihalaydi va 4D–5D bilan jadval–narxni bog‘laydi (Design), poligonda va VRda asosiy texnologik operatsiyalarni sinaydi (Implement), so‘ng ekspluatatsiya va texnik xizmat ko‘rsatish stsenariylarini ishlab chiqadi (Operate). Himoyada buyurtmachi vakili, korxonada mentorlari va o‘qituvchilar ishtirok etadi; baholash rubrikalarida texnik sifat bilan birga, xavfsizlik, ekologiya, hujjatlashtirish va kommunikatsiya komponentlari ham vaznlanadi. Shu bilan o‘quvchi “dars–ish joyi–loyiha” uchligini

yakdil tizim sifatida boshdan kechiradi va bozor talabiga tayyor holatda bitiradi.

